



TARIXIY QONUNIYAT VA TARIXIY ZAMON KATEGORIYALARI.

Yo'ldosheva Ozoda Sherzod qizi
Nafasov Xumoyun Baxrom o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti kechgi bo'lim 401-guruh talabasi

Yakubjanov J.J

Ilmiy rahbar -PhD dost.

Annotatsiya: *Maqolada tarixiy qonuniyat va tarixiy zamon kategoriyalari, ular haqida tarixchi olimlarning fikr-mulohazalari haqida, tarixiy qonuniyat shakllari haqida yoritib beradi.*

Kalit so'zlar: *Tarixiy qonuniyat, Pozitivistlar, Ratsionalist, Fatalist, Apologetika, Volyuntarizm, Brodel.*

Abstract: *This article explains the categories of historical закономерият (patterns/laws) and historical time, presents the opinions and reflections of historians about them, and highlights the forms of historical закономерият.*

Keywords: *Historical regularity, Positivists, Rationalist, Fatalist, Apologetics, Voluntarism, Fernand Braudel.*

Абстрактный: *В данной статье освещаются категории исторической закономерности и исторического времени, рассматриваются мнения и суждения историков о них, а также раскрываются формы исторической закономерности.*

Ключевые слова: *Историческая закономерность, Позитивисты, Рационалист, Фаталист, Апологетика, Волюнтаризм, Фернан Бродель.*

Tarixiy qonuniyat (qonun) — bu turli ko'rinishdagi «xususiy tarixiy» qonuniyatlarning birlashgan ko'inishi bo'lib, ularning o'zaro tenglikda bir-biri bilan kesishish nuqtasidir. Jamiyat hayotida sotsiologik qonuniyatlarning yuzaga kelishidan chekinish yoki tizimlarga xos bo'lmagan holatlar ham uchraydi. Tarix fani tarixiy jarayonlarni «to'g'rilash yoki izga solish» uchun sotsiologiyaga imkon bermaydi. M.Barg tarixiy qonunlarni vaqt bo'yicha, faoliyat ko'lami, yuzaga kelish yoki sodir bo'lish shakllari va sodir bo'lish holatlariga ko'ra turlarga bo'ladi. Ular an'analar va statistik qonunlar sifatida o'zlarini namoyon qiladi.¹

Tarixiy qonuniyat (qonun) — bu tarixiy jarayonlarning ichki o'xshash holatlarini o'zaro bogliqlikda aks ettiruvchi zaruriy, muhim ahamiyatga ega, barqaror holatda takrorlanuvchi aniq va konkret munosabatlardir. Tarixiy qonuniyatlar (qonunlar) aniq-umumiy, individual boshqaruvchi, shartli (ehtimoliy) bo'ladi. Ular tarixiy jarayonni hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik mohiyatiga asosan tushuntirib beradi.²

Tarixiy jarayonlarni qonuniyatlashirish g'oyasi yangi zamondagi mushohadalarni yuzaga keltirdi.

¹ Alimova D.A. „Tarix fani metodologiyasi,“ T.. 2018. B-158.

² Ilhomov J.A. „Tarix fanining nazariy asoslari,“ T.. 2020. B-157.



Pozitivistlar yuksalayotgan jamiyatning taraqqiyot qonunini turlicha talqin qiladilar. Xususan, Pozitivistlar bazan taraqqiyot qonunini tabiat qonunlari bilan o'xshash deb hisoblashsalar, ba'zan inson axloqiy taraqqiyotining asosiy qonuniyati deb tushuntiradilar.

Marksistlar esa qonuniyatlar g'oyasida qat'iy turib oldilar Ammo turli to'siqlar ham paydo buldi. Ularning maqsadlari bilan inson faoliyatining natijalari bir-biriga mos kelmadi.

Ammo jamiyatda ko'plab qonuniyatlar mavjud hamda ular doimiy harakatda bo'lishi jamlanishga va obyektiv qonuniyatlar sifatida shakllanishiga sabab bo'ladi.³

Fatalistlar esa tarix o'zining avvaldan malum yo'lida davom etib kelaveradi, unda hamma narsa qonuniy za zaruriy , inson esa shiddat bilan sodir bo'layotgan bu jarayonda mayda va arziyas payrahadir deb hisoblaydilar.

Valyuntaristlar Fatalistlar fikriga qarama-qarshi yo'nalishda edi. Ular inson tarixni ijod qiluvchi uni shakllantiruvchi omil deb bilib, inson bu jarayonda o'ziga zarur va o'zi hohlagan jamiyat barpo eta olishi mumkin deb hisoblaydilar.

Tarix fanidagi qonuniyatlar bilan uzviy bog'langan yana bir jihat tarixni davrlashtirish va tarixiy zamon kategoriyalari masalasidir.

Tarixchilar I.M Savelyeva va A.V Poletayevning takidlashicha , tarix fanida zamon (vaqt) kategoriyalari metodologiya fani uchun uning tarix fani predmeti va tarix fani metodlari kabi o'ta muhim o'rin tutadi.⁴

Tarixiy kategoriyalar — o'tmish jarayonlari, voqea-hodisalar va rivojlanish qonuniyatlarini anglash uchun xizmat qiluvchi asosiy ilmiy tushunchalar majmui (vaqt, makon, sivilizatsiya, davlat, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya). Ular tarixiy voqelikni tasniflash, tizimlashtirish va tahlil qilish imkonini beradi. Asosiy kategoriyalarga tarixiy vaqt, manbalar va tarixiy xotira kiradi.

Tarixiy kategoriyalarning asosiy turlari va ahamiyati:

Tarixiy vaqt va makon: Voqealar sodir bo'lgan davr (era, asr, yil) va geografik joylashuv (hudud, makon).

Tarixiy jarayon va hodisa: Tarixiy rivojlanishning o'ziga xos bosqichlari va konkret voqealar.⁴

Ijtimoiy-siyosiy kategoriyalar: Davlat, xalq, millat, sinf, sivilizatsiya, madaniyat, mafkura.

Tarixiy manbashunoslik: Arxivlar, yozma manbalar, arxeologik topilmalar – tarixdan guvohlik beruvchi ashyolar.

Evolyutsiya va taraqqiyot: Tarixiy kategoriyalarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.

³ Shodmonova S., „ Tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullari,„ T.. 2018. B-210

⁴ Баринова Е.П., Иполлитов Г.М., Бобкова Е.Ю. Основы теории и методологии исторической науки: Учебное пособие в схемах. М. 2010.



Tarixiy kategoriyalar o'tmishni ilmiy jihatdan tushunish, tarixiy xotirani shakllantirish va jamiyat rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda metodologik ahamiyatga ega.

Ko'plab mualliflar falsafiy mazmundagi ilmiy adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish natijasida vaqtni 2 qismga bo'ladilar. Bulardan birinchi guruhga statistik, diskretik, bir xil xususiyatli va tasodifiy-tasirsiz, ikkinchi guruh o'zgaruvchan, kontinual, har xil xususiyatli, tasodifiy-samarali turlarga bo'linadi.

Tarixchilar tomonidan vaqt va uning jihatlari haqida fikr mulohazalar juda ko'p emas. Bazi tushunchalarni keltirish mumkin. Fransuz tarixchisi F. Brodel, tarixiy vaqtning o'lchamlari, degan fikrni bildirgan.

F. Brodel vaqtning uchta qatlamini alohida-alohida ajratib ko'rsatadi. Eng quyi qatlamni tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yuz yillar davomida asta-sekinlik bilan o'zgarib borishi bilan xususiyatlanuvchi, uzoq vaqt, deb keltiriladi.⁵

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimova D.A. „Tarix fani metodologiyasi,, T.. 2018. B-158.
2. Ilhomov J.A. „ Tarix fanining nazariy asoslari,, T.. 2020. B-157.
3. Shodmonova S. „ Tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullari,, T.. 2018. B-210
4. Баринава Е.П., Иполлитов Г.М., Бобкова Е.Ю. Основы теории и методологии исторической науки: Учебное пособие в схемах. М. 2010.
5. Барг М.А. «Историческое время»: методологический аспект // Новая и новейшая история. 1990. № 1. С. 66 - 67.

⁵ Барг М.А. «Историческое время»: методологический аспект // Новая и новейшая история. 1990. № 1. С. 66 - 67.